



**ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARNI SAVODGA  
O'RGATISHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHAMIYATI**

*Qo'qon davlat universiteti Magistratura bo'limi  
Maxsus pedagogika(logopediya) yo'nalishi  
2-bosqich magistranti G'ofurova Umida O'tkirbek qizi  
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent M.S.Maxmudova*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233567>

**Annotatsiya.** Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya olishi izchil yo'lga qo'yildi. Ularning nuqsonlari va nuqsonning darajasiga qarab korreksion mashg'ulotlar ishlab chiqilishi, ularning umumta'lim muassasasida bilim olish ko'nikmasi hisobga olingan holda tashkil etiladi. O'quvchilarning aqliy faoliyati, jismoniy faolligi hisobga olingan holda ularning har biriga yakka tartib mashg'ulotlar tuzib chiqaladi. Undan tashqari bilim olish ko'nikmasi ham tekshirilib, ularga mos tarzda dars tashkil etiladi. Umumta'lim maktablarida savodga o'rgatish samarali natija bermoqda.

**Kalit so'zlar:** autizm, oligofren, alohida ta'lim ehtiyoji bor bolalar, inklyuziv ta'lim, integratsiya, savodga o'rgatish jarayoni, zamonaviy texnologiyalar, adaptatsiya.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarni inklyuziv ta'lim asosida umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan birgalikda bilim olishlarini ta'minlash maqsadida bir nechta qaror va qonunlar kuchga kirgan bo'lib, ularni amaldagi holatiga qarab inklyuziv ta'limning qanchalik muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Inklyuziv ta'lim bolalarga ijtimoiy adaptatsiyani rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bolalar o'z tengdoshlari bilan birga ta'lim olib, ular bilan muloqot qiladi. O'z navbatida muloqot qilish mobaynida bolada turli xil ko'nikma va malakalar shakllanib boradi. Jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish uchun avvalo muloqot ko'nikmasi yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim. Imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom bolalar bilan birga ta'lim olishi, o'yin o'ynashi, muloqot qilishi ularga sog'lom fikrlashni o'rgatadi. Ya'ni bolalar miyasidagi "Men nuqsonliman" degan fikrni o'chirishga va tashqi muhitga tezroq moslashishga yordam beradi. Inklyuziv ta'limni joriy etish oldidan bir nechta muammo va to'siqlarga uchrash tabiiy albatta. Sababi ko'pchilik vatandoshlarimiz onggiga singib ketgan qarashlarni o'zgartirish oson kechmaydi albatta. Buning uchun ota-onalarni, bolalarni, ustozlarni, umuman barcha-barchani inklyuziv ta'limga bo'lgan qarashlarini tuzatish, to'g'ri tushunchalar berib, ularning fikrlarini tuzatish lozim. Bu eng katta va hali ham yechimini to'liq topmagan muammolaridan biridir.

Inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich butun respublikamizda joriy etilishi nazorat qilib kelinmoqda. Maktablarda o'quvchilarning nuqsoniga va alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning soniga qarab xonalar ajratiladi, moddiy-texnik bazaga o'zgartirishlar kiritiladi, maxsus pedagoglar ishga qabul qilinadi. Ular bolalar bilan sinfda va sinfdan tashqari nuqsonidan kelib chiqqan holda mashg'ulot ishlari, korreksion mashg'ulotlar olib boradilar. Inklyuziv ta'limni joriy etish va natijaga erishish davlat tomonidan nazorat qilib boriladi.

Bolalar odatda biror malak yoki ko'nikmaga ega bo'lish uchun kattalarga taqlid qiladilar. Ya'ni nutqiy madaniyati, so'z boyligi, o'zlashtirishi ko'p jihatdan ota-onasiga bog'liq hisoblanadi. Agar bola maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalansa, uning nutqiga boshqa bolalar va o'z tengdoshlari ta'sir o'tkazadi. Bola ularga ham taqlid qiladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan muloqot qilganda o'zi sezmagani va istamagan holatda ham nutqiy muammolar kuzatilishi mumkin. Bu inklyuziv ta'limning ham ijobiy, ham salbiy Tomoni. Chunki agar bola sog'lom nutqiy muhitda tarbiyalansa, unda paydo bo'lgan yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nutq kamchiliklari bartaraf etiladi. Va aksincha nutqiy muammosi bo'lgan bola sog'lom tengdoshlariga aks ta'sir o'tkazib, ularda ham ayni shu nutq kamchiliklarini yuzaga keltirishi mumkin bo'ladi.

Sog'lom muhitda ta'lim olayotgani o'quvchi sog'lom fikrlaydi, sog'lom muloqot qiladi va bema'lol ijtimoiy hayotga moslasha oladi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy etilishining asosiy sababi ham aynan shunda. Barcha bolalar huquqlari har tomonlama tengdir. Xoh u imkoniyati



cheklangan bo'lsin va yoki sog'lom. Har bir bola o'zi istagan ta'lim muassasasida sifatli va bepul ta'lim olish huquqiga egadir. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablarida bilim olishlarini ta'minlash va ularni jamiyatga kerakli inson bo'lishlarini nazorat qilish davlatimiz mutassaddilari tomonidan amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har qanday bola o'z huquqlaridan bimalol foydalangan holda o'zi istagan davlat qaramog'idagi umumta'lim maktablarida bilim olishlari, hunar egallashlari mumkin. Bu esa kelajakda vatanimizda barcha teng huquqli ekanligini ta'minlaydi va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sog'lom fikrlashiga yordam beradi. Bola do'stlari bilan muloqot qiladi, ularga taqlid qilib jamiyatga qo'shiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.R.R.Zamilova. “Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va inklyuziv ta'lim”. “USMON NOSIR MEDIA” Namangan -2023-yil.

2.Z.N.Mamarajabova, B.Q.Subanova “Inklyuziv ta'lim” o'quv qo'llanma. Toshkent-2022.

3.D.S.Qaxarova. “Inklyuziv ta'lim texnologiyasi”. Toshkent -2014-yil.

Foydalanilgan internet saytlari:

1.<http://www.tdpu.uz>

2. <http://www.Ziyonet.uz>